ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7(3)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 338 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari ........ 8
Davronov Rustam Ilxomovich

Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана ........ 15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов

Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar ........ 20
Qudratov O'ktam G'ofurovich

The Role of Motivation in Learning English ........ 25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari ........ 30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna

Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-diagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi ........ 37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna

Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari ........ 43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna

Talabalarning texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari ........ 48
Kushbakova Barno Batirkulovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish ........ 54
Arslanova Madinaxon Mansurovna

O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati ........ 59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna

Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi ........ 63
Narzullayeva Firuza Olimovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish ........ 67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna

Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ........ 71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li

Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari ........ 76
Xolova Yulduz Erkinovna

Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi ........ 83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li

Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarning o'qish samaradorligini oshirish ........ 87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar ........ 90
Djurakulova Munira Suyunovna

Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri ........ 97
Narzullayeva Firuza Olimovna

Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания ........ 102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна

Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi ........ 108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi

Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari ........ 111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna

Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida) ........ 115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari ........ 121
Kadirova Dildora Najadbekovna

The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges ........ 125
Moxinur Yusupova

Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish ........ 131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna

Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati ........ 136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi

Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi ........ 140
A. S. Umarov

Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari ........ 143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi

O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot) ........ 150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish ........ 154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrigul Qurbanazarovna

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi ........ 159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi ........ 163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna

Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari ........ 169
Yuldashova Iroda Dilshodovna

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi ........ 174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna

O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim tizimida raqamli STEAM muhitini joriy etish: o'qituvchilar tayyorgarligi va infratuzilma cheklovlari tahlili ........ 178
Abdullayev Doston Sheraliyevich

Bo'lajak maxsus pedagoglarning faol fuqarolik kompetensiyasining tarkibiy-mezonli modeli va rivojlanganlik darajalari ........ 183
Sultonov Muxammadali Fayzulla o'g'li

Совершенствование механизмов интеграции стратегического и функционального менеджмента на основе анализа деятельности государственных и международных филиалов вузов ........ 189
А. М. Магрупов

Решение педагогических проблем, возникающих при обучении письму леворуких учащихся начальных классов ........ 194
Эгамбердиева Юлдуз

Biologiya ta'limida generativ sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va metodik asoslari ........ 198
Parmonova Marjona O'ktam qizi, Baybayeva Muxayyo Xudoyberganovna

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari ........ 204
Sherdanova Farangiz Raxmat qizi

Zamonaviy televideniyeda suxandon nutqining tabiiyligi va auditoriya bilan ishonchli muloqot ........ 208
Maxanbetova Dilnoza

10-sinf kimyo darslarida “Spirtlar” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning kreativ fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish metodikasi ........ 211
Nazarova Yulduz Atamuratovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishda ijodiy o‘yinlardan foydalanish ........ 215
Yuldasheva Shoxida Botirovna, Kurbanbayeva Moldir Abatbay qiz

Milliy taraqqiyot g‘oyalarida jadid ayollarining o‘rni ........ 220
Ergashova Mehriniso Husniddin qizi

Mahalla – oila – ta’lim muassasasi hamkorligi ........ 223
Muxtarov Utkirjon Mutalibjanovich, Abdusamatov Ozodbek

Oliy ta’lim muassasalarida “Mikrobiologiya” modulini raqamli texnologiyalar asosida o‘qitishning didaktik imkoniyatlari ........ 227
Reymova Erkinay Atabayevna

Raqamli ta’lim transformatsiyasi sharoitida professor-o‘qituvchilarning kasbiy motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik omillari ........ 232
Abdusamiyev Dilmurod Abdug‘ani o‘g‘li

Translanguaging as a Pedagogical Resource in Uzbek EFL Classrooms: Insights from a Classroom Observation ........ 238
Aziza Sobirova

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tasavvurini rivojlantirishning pedagogik-psixologik asoslari ........ 243
Otayeva Salamat Sabirovna

System-Structure Research of Artificial Intelligence Terms ........ 250
Odilova Fotima

Oliy ta’lim tashkilotlarida qo‘llaniladigan zamonaviy ta’lim metodlarining mazmuni va o‘ziga xos xususiyatlari ........ 259
Berdiyeva Nilufar Axatovna

Zamonaviy smart texnologiyalar asosida talabalarning texnik fikrlash kompetentligini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari ........ 267
Eshonqulova Madina Nosir qizi

Модель развития проектно-конструкторской компетентности студентов с использованием автоматизированных цифровых программ ........ 272
Камолова Махлиё Акбар кизи

Boshlang‘ich sinf tabiiy fanlar darslarida sun’iy intellekt vositalari asosida tadqiqotchilik kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi ........ 277
Savriddinova Mexrinoz Ulug‘bekovna, Ro‘zimatov Jamshid Alisher o‘g‘li

Ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning tug‘ruqdan keyingi davr ayollarida onalikdan mamnunlik bilan bog‘liqligi ........ 282
Kalandarova Madina Baxadirovna

Bo‘lajak o‘qituvchilarda lingvistik kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari ........ 285
Kamolova Mashhura Otabek qizi

Terminology and Lexical Problems in Modern Linguistics and AI ........ 289
Odilova Fotima

Adabiy ta’limda badiiy matnlar orqali o‘qish kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi ........ 294
Abdujabborova Nilufar Rustamjon qizi

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, uning bosqichlari va diagnostika metodikalari ........ 298
Boltayeva Go‘zal Komilovna

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining nutqiy muloqotini rivojlantirishda matn bilan ishlashning assotsiativ tafakkurga asoslangan metodikasi ........ 302
Hamroyeva Xolida Rizoqul qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligini baholashning kvalimetrik asoslari ....... 307
Niyozova Shahlo Abdusaitovna

Oilaviy holat, ma'lumot darajasi va pedagogik stajning ayollar emotsional barqarorligiga ta'sir etuvchi psixologik xususiyatlari ........ 313
Pulatova Dilfuza Baxramovna

"Kommunikativ kompetensiya"ning tarkibiy komponentlari........ 318
Saidova Sumbuloy Otabayevna

Kasbiy kompetensiyani shakllantirishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish ........ 321
Xamidova Zaynura Ramazonovna

Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari ........ 324
Yunusova Dildora Hamrakulovna

Nogiron farzandli turli yoshdagi onalarning psixologik farovonligi bilan depressiya, xavotir va stress o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik........ 328
Kasimova Xulkar Atabayevna

Talaba-qizlarda sog'lom turmush tarzi qadriyatlarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ............ 332
Esanova Gulchehra Boybo'ri qizi

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

# WIKI TEXNOLOGIYASI ASOSIDA INGLIZ TILI DARSLARINI TASHKIL ETISH BOSQICHLARI

Yunusova Dildora Hamrakulovna
Toshkent davlat sharshunoslik universiteti tadqiqotchisi
https://orcid.org/0009-0007-2626-0475

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Wiki texnologiyasi asosida ingliz tili darslarini tashkil etish bosqichlari borasida fikr va mulohaza yuritiladi. Shuningdek, wiki texnologiyasi asosida darslarni tashkil etishda bosqichlarda amalga oshiriladigan ishlar metodik jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** Wiki texnologiyasi, ingliz tili, kommunikativ kompetensiya, hamkorlikda o'qitish, raqamli ta'lim, yozma nutq, mustaqil ta'lim, pedagogik texnologiyalar, Web 2.0.

**Abstract:** This article examines the nature of Wiki technology and its pedagogical significance in English language teaching. It highlights the role of Wiki technology in organizing collaborative learning, promoting students' independent learning, and improving writing, communication, and information-processing skills. The study also discusses the contribution of Wiki platforms to enhancing the quality of education and fostering the development of communicative competence.

**Key words:** Wiki technology, English language, communicative competence, collaborative learning, digital education, writing skills, independent learning, pedagogical technologies, Web 2.0.

**Аннотация:** В данной статье анализируются сущность Wiki-технологии и её педагогическая необходимость в обучении английскому языку. Освещается значение Wiki-технологии в организации совместного обучения, развитии самостоятельной учебной деятельности студентов, совершенствовании навыков письменной речи, коммуникации и работы с информацией. Особое внимание уделяется влиянию использования Wiki-платформ на повышение качества образования и развитие коммуникативной компетентности.

**Ключевые слова:** Wiki-технология, английский язык, коммуникативная компетентность, совместное обучение, цифровое образование, письменная речь, самостоятельное обучение, педагогические технологии, Web 2.0.

## KIRISH

Wiki-texnologiya asosida tashkil etiladigan o'quv loyiha faoliyati zamonaviy ta'lim tizimida talabalarning nafaqat lingvistik, balki sotsiomadaniy kompetensiyasini shakllantirishda ham muhim didaktik vosita sifatida e'tirof etiladi. Ushbu texnologiya ta'lim jarayonini hamkorlikka asoslangan, interaktiv va kommunikativ yo'nalishda tashkil etish imkonini berib, o'quvchilarning madaniyatlararo muloqotga tayyorgarligini kuchaytiradi. Wiki-texnologiya konstruktivistik va ijtimoiy-interaktiv ta'lim paradigmasiga asoslanadi. Ya'ni bilim tayyor holda uzatilmaydi, balki o'quvchilar tomonidan hamkorlikda yaratiladi va qayta ishlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Wiki-texnologiya jarayoni L.S. Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy konstruktivizm g'oyalariga mos kelib, bilimning ijtimoiy muhitda shakllanishini tasdiqlaydi[1]. Shu ma'noda wiki muhitida talabalar birgalikda ishlash orqali nafaqat til materialini o'zlashtiradi, balki uni madaniy kontekstda tahlil qilish va qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. wiki-texnologiya talabalarning faol, mustaqil va refleksiv o'quv faoliyatini qo'llab-quvvatlaydi.

Guruhli loyiha ishlari jarayonida talabalar matnlarni yaratish, tahrirlash va takomillashtirish orqali tilning leksik, grammatik va uslubiy jihatlarini chuqurroq o'zlashtiradilar. Shu bilan birga, hamkorlikda ishlash jarayoni o'zaro muloqot, fikr almashish va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa kommunikativ kompetensiyaning shakllanishiga xizmat qiladi. wiki-texnologiya shaxsga yo'naltirilgan va faoliyatga asoslangan ta'limni amalga oshirish uchun samarali vosita hisoblanadi. U o'quvchilarda mustaqil fikrlash, jamoaviy mas'uliyat,

o'z-o'zini baholash hamda o'quv faoliyatini refleksiya qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ayniqsa, turli mutaxassislik yo'nalishlarida, jumladan "Huquqshunoslik" kabi nofilologik sohalarda ham wiki asosidagi sotsiomadaniy loyihalar kasbiy kompetensiyani til kompetensiyasi bilan integratsiyalash imkonini beradi.

E.D. Koshelyayeva tomonidan ilgari surilgan nazariyaga ko'ra, wiki-texnologiya asosida amalga oshiriladigan madaniyatshunoslik loyihalari talabalarda bir qator sotsiomadaniy ko'nikmalarni rivojlantiradi[2]. Jumladan, talabalar o'rganilayotgan til mamlakatining madaniy hodisalarini uning qadriyatlari tizimi asosida tahlil qilish, ona va chet madaniyatlarini qiyoslash, tarixiy-madaniy o'zgarishlarni anglash, matnlardan sotsiomadaniy axborotni ajratib olish hamda uni sharhlash ko'nikmalarini egallaydilar. Shuningdek, pretsedent hodisalarni to'g'ri talqin qilish orqali madaniyatlararo kompetensiyaning muhim komponenti shakllanadi.

Bizningcha, wiki-texnologiyaning asosiy pedagogik ahamiyati shundaki, u ta'lim jarayonini ochiq, hamkorlikka asoslangan va interaktiv muhitga aylantiradi. Bu esa talabalarni passiv bilim oluvchidan faol bilim yaratuvchiga aylantiradi. Natijada sotsiomadaniy kompetensiya nafaqat nazariy bilim sifatida, balki amaliy muloqot va real ta'limiy faoliyat jarayonida shakllanadi. Shu ma'noda wiki-texnologiyaning didaktik xususiyatlari vikiserverni til va madaniyatga oid (lingvomadaniy) loyihalarni yaratish platformasi sifatida foydalanish imkonini beradi. Biroq E.D. Koshelyayeva tomonidan o'tkazilgan tadqiqot wiki-texnologiya o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ishlar ichida, aksincha, istisno holat sifatida ko'riladi.

Wiki-texnologiyaning didaktik xususiyatlaridan yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda foydalanish samaradorligi bir qator tadqiqotlarda tasdiqlangan. Xususan, P.Sysov[3], Yu.Markova[4], G.Keslller[5]ning tadqiqot ishlarida wiki texnologiyalar asosida dars tashkil qilishning ahamiyati tahlil qilingan. Mualliflar tomonidan turli aniq nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodikalar ishlab chiqilgan va amaliyotda sinovdan o'tkazilgan. Shu bilan birga, har bir tadqiqotda olimlar chet tillarini o'qitish metodikasi uchun muhim bo'lgan kutilmagan xulosalarga kelgan.

G. Kessler internet-loyihalar orqali lingvistik va diskursiv kompetensiyani shakllantirish masalasini o'rgangan. Natijada u hamkorlikdagi wiki-loyihalar bajarilganda o'quvchilar yozma nutqni rivojlantirish jarayonida tilning grammatik, leksik va stilistik to'g'riligiga individual loyihalarga qaraganda ko'proq e'tibor qaratadi degan xulosaga kelgan[6].

Bizningcha, bunday xulosa ma'lum cheklovlarga ega bo'lishi mumkin va uni barcha ta'lim oluvchilarga nisbatan umumlashtirish to'g'ri emas. Chunki tajriba natijalarini shakllantirishda ishtirokchilarni tanlash mezonlari muhim rol o'ynaydi.

G. Kessler tadqiqotida eksperiment ishtirokchilari amaldagi chet tili o'qituvchilari bo'lgan. Ularning yuqori kasbiy darajasi va motivatsiyasi ijobiy natijalarga erishishga sabab bo'lgan. Ishtirokchilar yozma ishlarni bajarishda mazmun va til jihatiga alohida e'tibor berish zarurligini yaxshi bilganlar, bu holat esa har doim ham o'quvchilar yoki talabalar guruhida kuzatilmaydi.

Y.Yu. Markova tomonidan o'tkazilgan dissertatsion tadqiqotda, bir o'quv yili davomida (C1-C2 daraja) til oliygohi talabalarining yozma nutq ko'nikmalarini wiki-texnologiya asosida rivojlantirgan. Tadqiqot davomida talabalar quyidagi yozma nutq ko'nikmalarini egallaganlar:

- ishbilarmonlik xatlarini yozish;
- ma'ruzalar va xabarlar tayyorlash;
- taqriz va sharhlar yozish;
- esse yozish (tasviriy, hikoya, argumentativ, kontrast-taqqoslash turidagi esselar);
- kasbiy va ijtimoiy mavzularda qisqa maqolalar yozish[7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot natijasida Yu. Markova wiki-loyihalar ustida hamkorlikda ishlash jarayonida talabalar faqat kichik hajmdagi yozma ishlarni (xatlar, esse, taqriz va sharhlar) yaratishda mazmun, tuzilma va til jihatiga teng darajada e'tibor qaratadilar. Katta hajmdagi yozma ishlar (ma'ruzalar, referatlar, xabarlar) tayyorlash jarayonida esa talabalar til jihatiga nisbatan kamroq e'tibor qaratadilar. Bunday holatni shunday izohlash mumkin: odatda kichik hajmdagi ishlarni baholashda til to'g'riligi ham muhim mezon bo'lsa, referat va ma'ruzalarni baholashda esa asosiy urg'u mazmunga qaratiladi. Wiki-hujjatlarga kiritilgan o'zgarishlar ketma-ketligi tahlili shuni ko'rsatadiki, dastlab talabalar e'tibori matnning tuzilishi va mazmuniga qaratiladi, so'ngra ishning yakuniy bosqichida guruhning eng savodli a'zosi orfografiya, grammatika va punktuatsiyani tahrir qiladi.

Har qanday loyiha faoliyati singari, viki-texnologiya asosida ingliz tili darslarini tashkil etish ham aniq bosqichlar va izchil ketma-ketlikka tayanadi. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarda viki-texnologiya nafaqat yozma nutqni rivojlantiruvchi vosita, balki o'qish, yozish va tushunish (reading–writing–comprehension) inte-

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

MAKTAB TA'LIMI SCHOOL EDUCATION ШКОЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ

gratsiyasini ta'minlaydigan interaktiv ta'lim muhiti sifatida rivojlanmoqda. Viki-texnologiyaning pedagogik mohiyati shundan iboratki, u o'quvchilarga matnlarni nafaqat yaratish, balki ularni o'qish, tahlil qilish, qayta ishlash va hamkorlikda takomillashtirish imkonini beradi.

Bu jarayonda o'qish faoliyati yangi ma'lumotni qabul qilish bilan birga, uni anglash va qayta interpretatsiya qilishga xizmat qiladi. Yozish esa, o'quvchining o'z bilimini ifodalash va tizimlashtirish vositasiga aylanadi. Tushunish (reading comprehension) esa matn mazmunini chuqur anglash, g'oyalarni bog'lash va tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi. Shu bois viki-muhitda tashkil etilgan o'quv jarayoni integrativ xarakterga ega bo'lib, til kompetensiyasini kompleks rivojlantirishga yo'naltiriladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nofilologik yo'nalish talabalari uchun ingliz tilini viki-texnologiya asosida o'qitish alohida ahamiyatga ega, chunki ular uchun til asosan kasbiy va akademik axborot almashish vositasi hisoblanadi. Shuning uchun viki-platformada amalga oshiriladigan topshiriqlar talabalarni matn bilan faol ishlashga, turli manbalarni o'qib tushunishga, asosiy va ikkilamchi g'oyalarni ajratishga hamda ularni yozma shaklda qayta ifodalashga yo'naltiradi. Bu jarayon bir vaqtning o'zida o'qish va yozish ko'nikmalarini rivojlantiribgina qolmay, balki tushunish jarayonini ham shakllantiradi[8].

Viki-texnologiyaga asoslangan o'qitish modeli uch asosiy bosqichni o'z ichiga oladi: tayyorlov, jarayon va yakuniy baholash bosqichlari.

Tayyorlov bosqichida o'qituvchi talabalarni kichik guruhlarga ajratadi, loyiha maqsadini tushuntiradi, mavzuni belgilaydi hamda baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Shu bosqichda talabalar viki-platformada ishlash qoidalari, matn joylashtirish va tahrirlash tartibi bilan tanishadilar.

Bu jarayon ularda o'qish ko'nikmasini ham faollashtiradi, chunki platformadagi yo'riqnomalar va namunaviy matnlarni o'qib tushunish talab etiladi. Jarayon bosqichi viki-texnologiyaning markaziy didaktik qismi hisoblanadi. Bu bosqichda talabalar mavzuni tanlaydilar, uni kichik bo'limlarga ajratadilar, axborot manbalarini izlaydilar, ularni o'qiydilar, tushunadilar va tahlil qiladilar.

Shu asosda ular o'z yozma matnlarini yaratadilar va hamkorlikda tahrirlaydilar. Bu jarayon konstruktivistik yondashuv bilan birga, Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasiga ham mos keladi, chunki o'quvchilar o'zaro hamkorlik orqali individual imkoniyatlaridan yuqoriroq darajadagi til faoliyatini amalga oshirib, viki-muhitda o'qish va yozish faoliyati ajralmas integratsiyada rivojlanadi. Talaba avval matnni o'qiydi, uni tushunadi, keyin esa uni qayta ishlab, yozma shaklda ifodalaydi. Bizningcha, bu jarayon til o'rganishda kognitiv chuqurlashuvni ta'minlaydi va o'quvchini passiv qabul qiluvchidan faol yaratuvchiga aylantiradi.

Jarayon bosqichida talabalar mavzuni tanlaydilar, uni kichik bo'limlarga ajratadilar va har bir bo'lim bo'yicha ma'lumotlarni o'qib o'rganadilar, tahlil qiladilar hamda umumlashtiradilar. Bu bosqichda o'qish va tushunish faoliyati markaziy o'rinni egallaydi, chunki talabalar turli manbalardan olingan matnlarni o'qib, ularning mazmunini anglaydilar va qayta ishlaydilar. Shu bilan birga, yozish jarayoni ham bosqichma-bosqich rivojlanadi.

Talabalar o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydi, hamkorlikda tahrirlaydi va umumiy matnni shakllantiradi. Viki-muhitning asosiy afzalligi, u matnni bir martalik mahsulot emas, balki doimiy o'qish, tushunish va qayta yozish jarayoni sifatida tashkil etadi. Yozma va o'qish muhiti talabaga matnga qayta-qayta murojaat qilish imkonini beradi, bu esa tushunish jarayonini chuqurlashtiradi. Talabalar avval matnni o'qib tushunadilar, keyin uni tahlil qiladilar va nihoyat o'z fikrlarini yozma shaklda ifodalaydilar. Bu ketma-ketlik "o'qish-tushunish-yozish" integratsiyasini ta'minlaydi va til o'zlashtirishni tabiiy kognitiv jarayonga yaqinlashtiradi. Bu jihatdan viki-texnologiya an'anaviy sinfdagi fragmentar o'qitishdan farqli ravishda, integrativ til o'qitish modelini shakllantiradi. Ushbu bosqichda viki texnologiyasining muhim pedagogik jihati shakllanadi. yozma nutqni yakuniy mahsulot sifatida emas, balki doimiy takomillashuvchi jarayon sifatida tashkil etadi.

O'quvchilar matnga qayta-qayta murojaat qilish, uni tahrirlash va qayta yozish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shu sababli, tilni o'zlashtirish jarayonida mazmun va shakl o'rtasidagi muvozanat asta-sekin shakllanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asinxron yozma muloqot sharoitida o'quvchilar dastlab mazmunga, keyinchalik esa til shakliga ko'proq e'tibor qaratadilar. Bizningcha, bu holat tabiiy til o'zlashtirish jarayoniga yaqin bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Yakuniy bosqichda talabalar o'z viki-loyihalarini taqdim etadilar, natijalar muhokama qilinadi va o'quvchilar o'z-o'zini baholash hamda o'qituvchi bahosi orqali refleksiv tahlilga kirishadilar. Bu bosqich nafaqat yozma natijani, balki o'qish va tushunish jarayonining sifatini ham baholash imkonini beradi, chunki talabalar qanday manbalarni o'qiganliklari, ularni qanchalik tushunganliklari va qanday qilib yozma nutqda aks ettirganliklari muhim pedagogik ko'rsatkich hisoblanadi.

Bu jarayon, Bandura tomonidan ta'kidlangan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga ko'ra, model asosida o'rganish va amaliy faoliyat orqali bilimni mustahkamlash imkonini beradi. Bizningcha, aynan shu bosqich o'quvchilarda texnik qo'rquvni kamaytirib, til o'rganishga nisbatan ijobiy psixologik muhit yaratadi. Ushbu bosqich nati-

jasida baholashning metodik ahamiyati namoyon bo'lib, talabalar o'z viki-loyihalarini taqdim etadilar, natijalar muhokama qilinadi va baholanadi.

Baholash jarayoni ikki komponentdan iborat bo'ladi: o'z-o'zini baholash va o'qituvchi tomonidan baholash. O'z-o'zini baholash refleksiv fikrlashni rivojlantirib, o'quvchiga o'z faoliyatini tahlil qilish, kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi. O'qituvchi bahosi esa oldindan belgilangan mezonlar – mazmunning to'liqligi, tilning grammatik to'g'riligi, mantiqiy izchillik va hamkorlik darajasi asosida amalga oshiriladi.

Bizningcha, bunday ko'p komponentli baholash tizimi nafaqat bilimni o'lchash, balki kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, viki-texnologiya asosida tashkil etilgan darslarda baholashning shakllantiruvchi (formative assessment) turi yetakchi o'rin egallaydi.

P.Black va D.Wiliam[9] tomonidan ilgari surilgan shakllantiruvchi baholash konsepsiyasiga ko'ra, o'quv jarayonida doimiy feedback berish o'quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Viki-muhit aynan shu imkoniyatni yaratadi, chunki o'qituvchi va o'quvchilar matn ustida real vaqt rejimida izoh qoldirishi, tahrir kiritishi va maslahat berishi mumkin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa, Bizningcha, ushbu texnologiyaning eng muhim pedagogik ahamiyati shundaki, u ta'lim jarayonini interaktiv, refleksiv va talaba markazli tizimga aylantiradi hamda zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim talablariga to'liq javob beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Выготский Л. С. Мышление и речь. - М.: Лабиринт, 1999. 352 с.
2. Кошеляева Е.Д. Методика развития социокультурных умений студентов посредством социального сер
3. Сысоев П.В. Современные информационные и коммуникационные технологии: дидактические свойства и функции // Язык и культура. 2012. № 1. С. 120-133.
4. Маркова Ю.Ю. Методика развития умений письменной речи студентов на основе вики-технологии (английский язык, языковой вуз) : дис. … канд. пед. наук. М. : МГГУ им. М.А. Шолохова, 2011.
5. Kessler G. Student-initiated attention to form in wiki-based collaborative writing // Language Learning and Technology. 2009. № 1.
6. Kessler G. Student-initiated attention to form in wiki-based collaborative writing // Language Learning and Technology. 2009. № 1.
7. Маркова Ю.Ю. Методика развития умений письменной речи студентов на основе вики-технологии (английский язык, языковой вуз) : дис. канд. пед. наук. М. : МГГУ им. М.А. Шолохова, 2011.
8. Musumeci D. Breaking the tradition: an exploration of the historical relationship between theory and practice in second language teaching. N. Y. : McGraw-Hill, 1997
9. Black P., Wiliam D. Assessment and Classroom Learning // Assessment in Education: Principles, Policy & Practice. - 1998. - Vol. 5(1). - P. 7-74.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha) |
| 13.00.07 | Ta'limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(3)**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.